
Sektor rahbarlari yana bitta maktabdagi tadbirda ishtirok etishdi

15-umumiy o'rta ta'lim maktabida ham "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" shiori ostida "Birinchi qo'ng'iroq" tadbirlari keng miqyosda nishonlandi.

Katta quvonchlar bilan kutib olingan tadbirda tuman hokimi va sektor rahbarlari ishtirok etib, barchani yangi o'quv yili bilan tabriklashdi.

Joriy yilda kapital ta'mirlangan ushbu maskanda ushbu o'quv yilida 891 nafar o'quvchilar ta'lim olishadi. Ularning 111 nafari 1-sinf o'quvchilari, 39 nafari esa bitiruvchilar.

Tadbir davomida maktabga ilk bor qadam qo'ygan jajji o'g'il-qizlarga Prezident sovg'alari topshirildi.

2022-09-05 17:51:19